Qoraqalpog`iston Respublikasi
Statistika boshqarmasi

# Qoraqalpog`iston Respublikasida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-iyunda 1146 ta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,1 % kam demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (20,9%), sanoat tarmog'ida (19,8 %), savdo sohasida (20,2 %), qurilishda tarmog'ida (17,4%), yashash va ovqatlanishda (7,2 %), tashish va saqlashda (4,1 %) tashkil etilgan.

### 2018 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi



2018 yilning yanvar–iyunda kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 576,2 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 13,7 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 103,8 %ni tashkil qildi;



– 584,7 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 33,5 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyunga nisbatan o`sish sur`ati 123,5 %ni tashkil qildi;



– 689,8 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 84,2 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–iyunga nisbatan o`sish sur`ati 103,2 % ni tashkil qildi;




– 1172,5 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 59,3 %), 2017 yilning yanvar–iyunga nisbatan o`sish sur`ati 103,3 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 91,4 % yoki 1953,9 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 2,1 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 77,9 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 7,0 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 18,3 mln. AQSh dollariga yoki 97,9 % % ga ko`p;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,7 %ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 90,1 %i) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 2,5 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 97,1 % ) ko`payishi ta`minlandi;

Tumanlar bo`yicha eng ko’proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (131,9 mlrd.so’m), Xujayli (52,6 mlrd.so’m) va Beruniy (48,4 mlrd.so’m) tumanlari hissasiga to’g’ri keladi.

**Kichik tadbirkorlikning ulushi**
**(umumiy hajmiga nisbatan % da)**



## 2018 yil yanvar-iyunda tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




## 2018 yil yanvar-iyunda tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati




Tumanlar bo`yicha ko’proq chakana tovar aylanmasi hajmi Nukus shahri (508,2 mlrd.so’m), Beruniy (213,6 mlrd.so’m) va Xujayli (189,7 mlrd.so’m) tumanlari hissasiga to’g’ri keladi.

**2018 yil yanvar-iyunda tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur’ati**




Tumanlar bo`yicha ko'proq xizmatlar hajmi Nukus shahri (489,1 mlrd.so'm), Turtkul tumani (89,8 mlrd.so'm) va Xujayli (77,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

## 2018 yil yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning tumanlar bo`yicha ulushi (% da)

| | *Sanoat* | *Qurilish* | *Xizmatlar* |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog`iston Respublikasi | 13,7 | 84,2 | 59,3 |
| tumanlar: | | | |
| Amudaryo | 31,4 | 96,7 | 96,1 |
| Beruniy | 50,0 | 95,7 | 96,9 |
| Qorauzyak | 99,9 | 90,5 | 98,1 |
| Kegeyli | 26,3 | 84,5 | 97,3 |
| Qung'irot | 61,9 | 17,7 | 27,6 |
| Qonlikul | 24,5 | 98,3 | 97,4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Muynoq | 5,7 | 94,8 | 98,1 |
| Nukus tumani | 99,9 | 98,4 | 97,4 |
| Taxiatosh | 3,6 | 48,7 | 84,3 |
| Taxtakupir | 99,9 | 100,0 | 97,4 |
| Turtkul | 68,0 | 96,3 | 93,6 |
| Xujayli | 37,1 | 90,1 | 73,7 |
| Chimboy | 91,0 | 100,0 | 93,2 |
| Shumanay | 100,0 | 65,0 | 97,9 |
| Ellikqala | 48,1 | 96,1 | 96,3 |
| shahar: | | | |
| Nukus sh. | 4,4 | 98,0 | 47,9 |

Tumanlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Shumanay (100,0%), Qorauzyak (99,9%), Nukus tumani (99,9%), Taxtakupir (99,9%), va Chimboy (91,0%), va Qung'irot (61,9%) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qorauzyak (98,1 %), Taxtakupir (97,4 %) va Kegeyli (97,3 %), Shumanay (97,9 %), Nukus tumani (97,4 %) Taxiatosh (84,3 %), tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Taxtakupir, va Chimboy (100,0 %), Qonlikul (98,3%), Nukus shahri (98,0 %) va Amudaryo (96,7 %) Beruniy (95,7%), Muynoq (94,8%), Xujayli (90.1 %),tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 42,1 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-iyunda 47,1 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil II- chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 30 ta respondent ishtirok etdi.

Kuzatuv ma`lumlotlari tahlili, respondentlarning 16,7 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 73,3 % esa qoniqarsiz 10,0% deb hisoblashini,

mos ravishda qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 28,6 % va 42,9 % qonigarsiz 28,6%, savdoda – 28,6 % va 71,4%, xizmatlar sohasida – 16,7 % va 83,3 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.

**Iqtisodiy vaziyatni baholash**
**2018 yil II–chorak uchun**




**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 20,0 % sanoat korxonalari, 28,6 % – savdo, 16,7 % – xizmatlar, 42,9 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 20,0 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

**Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi**




Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko’rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.